

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov

Farg'ona viloyatini Rossiya imperiyasining xom ashyo bazasiga aylantirilishi
(XIX asrning ikkinchi yarmi)..... 203

M.M.Temirova

O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari 208

Q.Sulaymonov

Iqtisodiyotni globallashuvida informatsiyaning o'rni 213

X.E.Xodjamberdiyev

Ikkinchi jahon urushi yillarda O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirilishi va uning aholi turmush tarziga ta'siri..... 216

A.A.Xakimov, O.Sh.Ubaydullayev

Farg'ona vodiysi shaharsozlik madaniyatining xususiyatlari va rivojlanishi
(Sho'rabashot dehqonchilik madaniyati misolida)..... 222

M.M.Abdullayeva

Zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasi
(Namangan viloyati misolida) 226

F.Abdurasulova

Buxoro amirligida diniy ta'llimning Amir Shohmurod va Amir Haydar hukumronligi
davrida rivojlanishi 232

A.A.Aloxunov

Yangilangan saylov tizimi – yurt taraqqiyotining kafolati..... 236

M.B.Siddiqov

Ikkinchi jahon urushi yillarda pensiya tizimi 241

G.A.Abdug'aniyeva

Harbiy xizmatga chaqiruvlarda tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalasi 247

N.V.Karimova

Farg'ona vodiysi antik davr shaharlari tarixiy–topografiyasining o'rganilishi..... 252

ADABIYOTSHUNOSLIK**A.G.Sabirdinov**

Xudoyerberdi To'xtaboyevning qahramon yaratish mahorati 257

G.V.Abdullayeva

Bolalar she'riyatida lirik qahramon masalasi..... 260

S.Q.Mamatova

Nuh Alayhissalom obrazining tarixiy asoslari..... 267

N.Y.O'roqova

Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlari talqini 271

D.A.Qahharova

Lirikada ko'ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili..... 280

S.A.Xaqnazarova

An'ana va novatorlik: nazariy asos, takomil va turlar 287

M.Islomova

Hayot haqiqati va badiiy tafakkur 290

A.A.Qayumov, D.G'.Gafurova

Badiiy detalning poetik vazifasi (X.Do'stmuhammadning "Jodi" asari misolida) 294

Y.B.Eshmatova

Turk hikoyachiligidagi an'ana va yangilanishlar sintezi..... 299

Д. О.Турдалиев

Интеграция устного народного творчества в сказках а.с. пушкина: фольклорные корни и литературные трансформации 303

F.B.Sultonqulova

Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon tabiatи 306

G.A.Jurayeva

Bolalar she'riyatida shakliy -mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar..... 310



УО'К: 34.01/35.05.

YANGILANGAN SAYLOV TIZIMI – YURT TARAQQIYOTINING KAFOLATI
ОБНОВЛЕННАЯ ИЗБИРАТЕЛЬНАЯ СИСТЕМА – ГАРАНТИЯ РАЗВИТИЯ СТРАНЫ
THE UPDATED ELECTORAL SYSTEM IS A GUARANTEE OF THE COUNTRY'S DEVELOPMENT

Aloxunov Alisher Axmadjonovich 

Fargona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasи dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ilk bor Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarini saylashda majoritar va proporsional saylovlarining ayrim elementlaridan iborat aralash saylov tizimining joriy etilganligi, uning afzalliklari hamda amalga oshirilishi bilan bog'liq ayrim masalalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье рассуждается о некоторых вопросах, связанных с внедрением смешанной избирательной системы, включающей элементы мажоритарной и пропорциональной избирательных систем при проведении выборов в Законодательную палату Олий Мажлиса Республики Узбекистан, с ее преимуществами и реализацией.

Abstract

This article reveals some issues related to the introduction of a mixed electoral system, including elements of the majoritarian and proportional electoral systems during elections to the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, with its advantages and implementation.

Kalit so'zlar: saylov kompaniyasi, saylovchi, saylov komissiyalari, Oliy Majlis quyi palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari, siyosiy partiyalar, majoritar va proporsional saylov tizimi, aralash saylov tizimi.

Ключевые слова: избирательная компания, избиратель, избирательные комиссии, нижняя палата Олий Мажлиса, областные, районные и городские советы народных депутатов, политические партии, мажоритарная и пропорциональная избирательная система, смешанная избирательная система.

Key words: election company, voter, election commissions, the lower house of the Oliy Majlis, regional, district and city councils of people's deputies, political parties, majoritarian and proportional electoral system, mixed electoral system.

KIRISH

Saylov – vakillarni tanlashning demokratik usuli. Saylov saylovchilarga ular uchun qonunlar ishlab chiqadigan, hukumatni tuzadigan va muhim qarorlar qabul qiladigan vakillarni tanlashda yordam beradi.

Saylov – bu odamlar o'z rahbarlarini muntazam ravishda tanlashi va agar xohlasa, ularni almashtirishi mumkin bo'lgan mexanizmdir. Saylov turli ko'rinishda bo'ladi. Unda aholi qatnashishi yoki ularning vakillarigina ishtirok etishi mumkin. Saylov ochiq yoki yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. Qaysi organ saylanayotganiga qarab parlamentga yoki prezidentlikka saylash, parlamentning umumiy yoki bir qismi uchun saylov o'tkazilishiga qarab yalpi yoki qisman saylov bo'lishi mumkin.

Saylovlar — saylov kompaniyasida ishtirok etish orqali saylov huquqlarini amalga oshirishning bir shaklidir. U har bir fuqaroning o'z kelajagi, vatan ravnaqi, halqining farovonligini ta'minlab berish borasidagi siyosiy jarayondir.

Saylovlar jarayonida e'tibor markazidagi eng muhim odam – saylovchi. Butun jarayon uning manfaatlarini ko'zlab tashkil etiladi. Qonunlar, tartib-qoidalar, eng avvalo, saylovchiga qulaylik yaratish nuqtai nazaridan ishlab chiqiladi va qabul qilinadi.

"Inson manfaatlari — har narsadan ustun!" degan hayotbaxsh demokratik g'oyani o'zida mujassam etgan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish

TARIX

to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda saylovlar sohasidagi islohotlarning yangi, yanada yuksak va samarali davrini boshlab berdi[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 22-bob 128–129-moddalari Saylov tizimiga bag'ishlangan bo'lib, 128-moddaning 1-bandiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi[2].

2024-yili 60 dan ortiq mamlakatlarda saylovlar bo'lishi kutilmoqda, bu degani dunyoning qariyb yarmi yashovchi mamlakatlarda 2 milliarddan ortiq odam ovoz berishda ishtirok etadi. Jumladan, yurtimizda ham ushbu yilda Parlament saylovlari o'tkazilishi ko'zda tutilgan[3].

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev butun O'zbekiston xalqini «yangi O'zbekiston uchun, erkin va farovon hayot, farzandlarimizning baxti va istiqboli uchun ovoz berishga» chaqirdi. Bu haqda u 31-avgust kuni Toshkentda O'zbekiston mustaqilligining 33 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida aytib o'tdi[4].

27-oktabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlarga deputatlar saylovi bo'lib o'tadi. Ular ilk bor «rivojlangan mamlakatlardagi kabi» majoritar-proporsional (aralash) tizim asosida, «yangilangan Konstitutsiyada belgilangan ijtimoiy-siyosiy muhitda» o'tkaziladi, dedi prezident[5].

Ma'lumki, Qonunchilik palatasi hamda mahalliy kengashlar deputatlari besh yil muddatga saylanadi. Amaldagi Qonunchilik palatasi hamda mahalliy kengashlarga deputatlar saylovi 2019-yili o'tkazilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 128-moddasiga muvofiq Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlar tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda – oktabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi. Demak, Oliy Majlis quyi palatasi hamda mahalliy kengashlar deputatlari saylovi 2024-yil 27-oktabr, yakshanba kuni bo'lib o'tadi[6].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Saylov kodeksida belgilangan muddatlardan kelib chiqib, 2024-yilning 26-iyulidan Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy kengashlar deputatlari saylovi bo'yicha saylov kompaniyasiga start berilib, kalender reja tasdiqlandi[7]. Ushbu saylovlarda Konstitutsiyamiz va xalqaro saylov standartlariga binoan mamlakatimizning oly davlat vakillik va qonun chiqaruvchi organi hamda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining tarkibi yangilanishi alohida ta'kidlanadi.

Siyosiy partiyalarning rolini oshirish uchun aralash saylov tizimiga o'tish taklifi mart oyida O'zbekiston Prezidenti tomonidan deputatlar bilan uchrashuvda ilgari surilgan edi. 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan Konstitutsiyaning yangi tahriri bo'yicha referendumdan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan majoritar-proporsional shakliga asoslangan saylov tizimini joriy etish belgilandi[8].

Bungacha O'zbekistonda parlament saylovlari majoritar tizim bo'yicha o'tkazilib, unda o'z saylov okrugida ko'pchilik ovoz olgan nomzodlar saylangan deb hisoblanardi. Bu yil saylovlar birinchi marta majoritar-proporsional (aralash) tizim asosida o'tkaziladi.

Majoritar – fransuzcha so'zdan olingen bo'lib, "ko'pchilik" degan ma'noni anglatadi. Mazkur saylov tizimi davlat hokimiyati va mahalliy hokimiyat vakillik organlarini (parlament, xalq deputatlari mahalliy kengashlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqalar), shuningdek, davlat rahbarini saylash uchun o'tkaziladigan saylov tizimi bo'lib, unda, asosan, bir mandatli saylov okrugi bo'yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning boshqa nomzodlarga nisbatan ko'proq ovozini olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Kam ovoz olgan nomzodlar uchun berilgan saylovchilar ovozi inobatga olinmaydi[9].

Proporsional saylov tizimi xalqaro amaliyotda mavjud saylov tizimlaridan biri bo'lib, u orqali saylov o'tkazilganda, deputatlik mandatlari, ya'ni vakillik organida mavjud deputatlik o'rinnari siyosiy partiyalar tomonidan shakllantirilgan deputatlikka nomzodlar ro'yxatlari uchun siyosiy partiyalarga berilgan ovozlarga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Majoritar saylov tizimidan farqli o'laroq,

saylovchi bevosita deputatlarga nomzod shaxsga emas, balki saylovda ishtirok etayotgan, deputatlarga nomzodlari ro'yxatini taqdim etgan siyosiy partiyaga ovoz beradi[10].

Hozirgi kunda proporsional saylov tizimi ancha keng tarqalgan. Proporsional saylov tizimida saylov natijalarini aniqlashda qonunchilikda vakillik organida mavjud deputatlarga da'vogarlik qilish uchun siyosiy partiyalar qo'lga kiritishi zarur bo'lgan ovozlarning eng kam miqdori belgilanadi. Masalan, O'zbekiston Saylov kodeksiga, Qonunchilik palatasiga saylovda yagona saylov okrugi bo'yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning kamida yetti foiz ovozini olgan siyosiy partiyalar belgilangan tartibda mandatga ega bo'ladi. Saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiya qonunchilikda belgilangan eng kam miqdordagi yoki undan ko'proq saylovchilarning ovozini to'play olsagina, unga deputatlarga mandatlari taqsimlanadi. Buning uchun, avvalo, saylovchilar bergen ovozlar vakillik organida mavjud deputatlarga o'rinni soniga bo'linadi. Natijada bitta mandat (deputatlarga o'rni) uchun to'planishi lozim bo'lgan ovozlar miqdori ma'lum bo'ladi va u saylov koeffitsenti hisoblanadi. So'ng saylovchilarning har bir siyosiy partiyani yoqlab bergen ovozlari alohida-alohida hisoblab chiqiladi. Har bir siyosiy partiya olgan ovozlar soni saylov koeffitsiyentiga bo'linadi, natijada mazkur partiya ega bo'lgan deputatlarga o'rinnarining umumiyo soni aniq bo'ladi.

Proporsional saylov tizimida saylovchilar siyosiy partiyalarga ovoz beradi va natijada qaysi siyosiy partiya qancha ovoz olganiga qarab deputatlarga o'rinnariga ega bo'ladi.

Ma'lumki, parlamentimiz quyi palatasi besh yil muddatga saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat. Mamlakatimiz tarixida birinchi marta aralash tizimda saylov okruglari bir mandatli va yagona saylov okruglari bo'linadi.

Parlament quyi palatasi deputatlarining 75 nafari bir mandatli saylov okruglari bo'yicha majoritar tizim (nomzod uchun ovoz berish), qolgan 75 nafari proporsional tizim bo'yicha, ya'ni siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar asosida (partiya ro'yxati asosida) saylanadi.

Endi saylovchi Qonunchilik palatasi deputatligiga saylovda ikkita byulleten orqali ovoz beradi: birinchisida aniq bir nomzodga ovoz bersa, boshqasida o'zi ishongan siyosiy partiyani belgilaydi.

Ilgari deputatlarga nomzodlari orasida ayollar kamida 30 foiz bo'lishi kerak degan gender kvotasi, endilikda 40 foizgacha ko'tarildi. Siyosiy partiya ro'yxatidagi ketma-ketlikda esa kamida har besh nomzodning ikki nafari ayol kishi bo'lishi lozim[11]. Albaniya, Belgiya, Gretsya, Gruziya, Irlandiya, Italiya, Qozog'iston, Moldova, Mongoliya, Portugaliya va Fransiya kabi xorijiy davlatlar saylov qonunchiligidagi ham xotin-qizlar uchun deputatlarga ro'yxatlarini shakllantirishda muayyan kvotalar belgilanganligi ko'rish mumkin.

Mojaritar tizimda siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlarning hech biri saylovchilarning yarmidan ko'pining ovozini ololmasligi mumkin edi. Bu esa takroriy ovoz berishni o'tkazish, qo'shimcha tashvish va xarajat demakdir. Jumladan, 2019-yilda o'tkazilgan parlament saylovlarida yigirma beshta saylov okrugida takroriy ovoz berish o'tkazilgan. Bundan tashqari, bo'shab qolgan deputatlar o'rnni to'ldirish uchun saylov komissiyalari faoliyatini qaytadan tiklash zarur. Bu esa minglab odamlarni yana saylov komissiyalari ishiga jalb etish, saylovchilarni yana ovoz berishga da'vat qilish bilan bog'liqdir. Proporsional saylov tizimining afzalligi – bunday holatlarda partiya tomonidan ko'rsatilgan ro'yxat bo'yicha navbatdagi nomzod deputatlarga o'rnni egallaydi. Partiyalar tomonidan shakllantirilgan ro'yxatlar jamoatchilik e'tiboriga havola qilinadi.

Xalqimizning irodasi bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda saylov tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator normalar o'z aksini topgan, jumladan, endilikda:

1) viloyatlar va Toshkent shahar saylov komissiyalari o'rniiga hududiy saylov komissiyalari tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini hamda Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish bo'yicha okrug saylov komissiyalarini tuzish tartibidan voz kechildi hamda ularning vazifalarini hududiy saylov komissiyalariga yuklatildi, ya'ni okrug saylov komissiyalari faqatgina xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga saylov o'tkazish bo'yicha tuziladi;

2) saylov komissiyalarining professional tarzda ish olib borishini ta'minlash maqsadida hududiy saylov komissiyalarining uch nafargacha bo'lgan a'zosi doimiy faoliyat yuritadi;

3) hududiy saylov komissiyalari Markaziy saylov komissiyasi tomonidan, tuman va shahar saylov komissiyalari esa hududiy saylov komissiyalari tomonidan tuziladi (ilgari ular xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tuzilar edi).

Shuningdek, okrug saylov komissiyalari va uchastka saylov komissiyalari ham hududiy saylov komissiyalari tomonidan tuziladi.

TARIX

4) saylov okruglarini tuzishga oid qoidalar takomillashtirildi, jumladan:

– Saylov kodeksida mahalliy Kengashlarga saylov o'tkazish uchun tuziladigan saylov okruglari sonining eng yuqori miqdori belgilangan bo'lib, okruglar sonining aniq miqdori ko'rsatilmagan edi.

Bugungi kunda Saylov kodeksida mahalliy Kengashlarga saylov o'tkazish uchun saylov okruglari tegishli deputatlik o'rirlariga teng miqdorda tuzilishi, deputatlik o'rirlari soni esa aholi sonidan kelib chiqqan holda aniq belgilab qo'yildi;

– saylovchilar ro'yxatining dolzarbli va aniqligini doimiy ravishda ta'minlash maqsadida saylov okruglar va uchastkalari har 5 yilda bir marta tuzilishi belgilandi.

Saylov komissiyalari va ularning a'zolari o'z faoliyatini har qanday davlat organlaridan, jamoat birlashmalaridan va mansabdar shaxslardan mustaqil holda amalga oshiradi. Saylov komissiyalarining faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Masalalarni ko'rib chiqish va qarorlar qabul qilish saylov komissiyasi tomonidan kollegial tarzda amalga oshiriladi. Saylov komissiyalari o'z faoliyatini ochiq va oshkora amalga oshiradi.

Saylov komissiyasining majlislarida siyosiy partiyalarning, ommaviy axborot vositalarining vakillari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, boshqa davlatlardan, xalqaro tashkilotlardan kuzatuvchilar hozir bo'lishi mumkin.

Saylov komissiyasi saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq masalalar yuzasidan davlat organlariga hamda jamoat birlashmalarining organlariga, korxonalarga, muassasalarga, tashkilotlarga, mansabdar shaxslarga murojaat qilish huquqiga ega, ular qo'yilgan masalani ko'pi bilan 3 kunlik muddatda ko'rib chiqishi va saylov komissiyasiga javob qaytarishi shart[12:6].

2024-yil 21-avgust kuni Markaziy saylov komissiyasining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari sayloviga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazish bilan bog'liq navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Majlisda saylovda ishtirok etish uchun quyidagi siyosiy partiyalarga ijozat berildi:

1. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasiga;
2. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasiga;
3. O'zbekiston Ekologik partiyasiga;
4. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasiga;
5. O'zbekiston "Adolat" sotsial demokratik partiyasiga[13].

Ma'lumki, Saylov kodeksining 31-moddasiga asosan Qonunchilik palatasi deputatlarining yagona saylov okrugi bo'yicha saylovida saylov byulleteniga unda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalarning nomi, ramziy belgisi ularning saylovda ishtirok etishi uchun ijozat berilgan navbatiga muvofiq ketma-ketlikda kiritiladi[14].

Qayd etish o'rinniki, Qonunchilik palatasiga saylovda yagona saylov okrugi bo'yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning kamida yetti foiz ovozini olgan siyosiy partiyalar belgilangan tartibda mandatga ega bo'ladi[15].

Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlaridagi deputatlik o'rirlarida ham muayyan o'zgarishlar yuz beradi. Endilikda deputatlik o'rirlari soni aholi sonidan kelib chiqqan holda tegishli mahalliy Kengash tomonidan quyidagicha belgilanadi:

- aholi soni 2 million nafargacha bo'lgan hududlarda – 30 tadan 40 tagacha;
- aholi soni 2 milliondan 3 million nafargacha bo'lgan hududlarda – 40 tadan 50 tagacha;
- aholi soni 3 million nafardan ortiq bo'lgan hududlarda – 50 tadan 60 tagacha.
- Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlaridagi deputatlik o'rirlari soni aholi sonidan kelib chiqqan holda tegishli mahalliy Kengash tomonidan quyidagicha belgilanadi:
- aholi soni 30 ming nafargacha bo'lgan hududlarda – 10 tadan 15 tagacha;
- aholi soni 30 mingdan 100 ming nafargacha bo'lgan hududlarda – 15 tadan 20 tagacha;
- aholi soni 100 mingdan 300 ming nafargacha bo'lgan hududlarda – 20 tadan 25 tagacha;
- aholi soni 300 ming nafardan ortiq bo'lgan hududlarda – 25 tadan 30 tagacha[16].

Ilgari xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarida teng tartibda - oltmis nafargacha, tuman va shahar Kengashlarida esa o'ttiz nafargacha deputatlik o'rni bo'lgan.

XULOSA

Saylovning aralash tizimi avvalo, saylovchilar uchun, qolaversa saylanuvchilar va saylov tashkilotchilari uchun ham yangi, yanada keng qulaylik va imkoniyatlar yaratadi.

Saylova ishtirok etishning nisbatan past darajasi ta'lim, kasbiy maqom va daromad darajasining pastligi bilan ham bog'liq. O'zining kundalik muammolari bilan o'rakashib qolgan aholi vakillari odatda saylov bilan ham, undagi nomzodlar bilan ham qiziqmaydi. Va eng muhimi, huquqiy savodxonlikning yetishmasligi, odamlar saylovning ahamiyatini his qilmasligiga, saylov natijasida turmushdagi qiyinchiliklarni yengillashtirish mumkinligini anglab yetmasligiga sabab bo'ladi.

O'zi yashayotgan kichik hudud – tuman, shahar, viloyat hokimlarini o'zi saylamagan, bu vakolat deputatlarga berilgani uchun saylovning kichik afzalliklarini o'z ko'zi bilan ko'rmagan aholi vakillarida, yirik saylovga bo'lgan qiziqishning oshishi qiyin bo'lishi mumkin. Lekin bularning bari bo'lmanan taqdirda ham, saylov qiziq, raqobatbardosh tarzda o'tkazilgan taqdirda ham unda ishtirok etuvchilar soni baribir kamligicha qolaverishi mumkin. Buning sababi esa shunchaki befarqliq va shunchaki huquqiy savodxonlikning yetishmasligi. Zero, saylovchilarning faolsizligi jamiyatning faqat ba'zi guruhlarigina o'zları xohlagan odamlarni saylab olishi va boshqalarning manfaatlarini chekkaga surib qo'yishiga olib boradi. Bunday bo'lmagliki uchun har bir saylovchi saylovchilik mas'uliyatini his etmog'i, saylov nimaligini bilmog'i lozim.

Saylovning mamlakat hayotidagi alohida o'rnini e'tiborga olib, ushbu jarayonda fuqarolarni keng jalb etish maqsadida Markaziy saylov komissiyasi tomonidan 2024-yil 27-oktabrdagi saylov «Mening tanlovim – obod Vatanim» shiori ostida o'tkazilishi e'lon qilindi.

Saylova ishtirok etish, jamiyatimiz kelajagi uchun qayg'urish demakdir. Yurtimiz rahbarligiga nomzodlar bilan tanishar ekanmiz, har birlarining saylov kompaniyasini qunt bilan o'rganib, saylash masalasiga mas'uliyat bilan yondashishimiz kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nizamxodjaev Z. Milliy saylov tizimi: demokratik islohotlarning yangi davri. <https://saylov.uz/oz/article/milliji-sajlov-tizimi-demokratik-islo-otlarning-yangi-davri>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/6445145>
3. Insoniyat tarixidagi eng yirik saylovlar yili. <https://m.kun.uz/news/2024/01/04/2024-yil-insoniyat-tarixidagi-eng-yirik-saylovlar-yili-boladi>
4. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston mustaqilligining 33 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. <https://xabar.uz/uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-ozbekiston-mustaqilligining>
5. "Bo'lg'usi saylovlar kuchli raqobat muhitida o'tadi". Prezident — deputatlar saylovi haqida. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/08/31/elections/>
6. Mamlakatimizda ulkan siyosiy jarayon – Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlari saylovi bo'lib o'tadi/ 25/10/2024. <https://samstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/13832>.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi hamda mahalliy kengashlar deputatlari saylovi kampaniyasiga start berildi. <https://ndpi.uz/uz/2024/07/26/30198/>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni, 08.05.2023-yildagi PF-67-son. <https://lex.uz/docs/-6461609>
9. Majoritar-saylov-tizimi-va-uning-umumiyy-xususiyatlari. <https://civil.uz/Majoritar-saylov-tizimi-va-uning-umumiyy-xususiyatlari/>
10. Proporsional-saylov-tizimi. <https://milliycha.uz/Proporsional-saylov-tizimi/>
11. Nizamxodjayev Z. Saylov huquqi: inson qadriga yuksak e'tibor. "Yangi O'zbekiston" gazetasi. 2024-yil 30-iyul. 151-son (1212). <https://saylov.uz/oz/article/saylov-huquqi-inson-qadriga-yuksak-e-tibor>
12. Saylov qonunchiligi va amaliyoti bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, 2024. – B. 6. (- 203 b.)
13. Siyosiy partiyalarning saylovda ishtirok etishiga ijozat berildi. https://saylov.uz/oz/press_service_in/politicheskie-partii-poluchili-dopusk-k-uchastiyu-v-vyborah
14. O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi. 26.06.2019. <https://lex.uz/docs/4386848>
15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari saylovida ovoz berishni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2024-yil 2-iyul, 1343-son Qarori. <https://old.lex.uz/ru/docs/-7015537>
16. Qonunchilik palatasi deputatlari saylovi aralash saylov tizimi asosida o'tkaziladi. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/12/19/election/>